

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAHASSISLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI  
FARG‘ONA FILIALI**



**1.1-MODUL. JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDA  
DEMOKRATIK O‘ZGARISHLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

**2-MAVZU: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI YANADA  
RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA HARAKATLAR STRATEGIYASI-  
MILLIY TARAQQIYOT ASOSI**



## Reja:

**2.1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va uning ustuvor yo‘nalishlari**

**2.2. Harakatlar strategiyasida maktabgacha ta’lim, jismoniy tarbiya va sport sohaslarini rivojlantirish masalalari**

**2.3. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid davlat siyosati**

## **2.1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi va ustuvor yo‘nalishlari**

### **Strategiya**

**- bu ta’limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo‘lib, u izchillik bilan va to‘liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta’minlaydi.**

**XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi, dunyo miqyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartaraf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni qamrab oladi.**

**2016 yil  
sentabr**

- **O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri virtual qabulxonasi tashkil etildi, saylovoldi jarayonlarida barcha xududlarda ochiq muloqot, amaliy suhbat va muhokamalar olib borildi**

**2016 yil  
dekabr**

- **Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi hamda Davlat dasturi loyihalari ishlab chiqildi**

**2017 yil  
yanvar**

- **Harakatlar strategiyasi hujjatlari loyihalari bo‘yicha media-haftalik va xalqaro davra suhbatlarida 1 300 dan ortiq mutaxassis va ekspert, jamoatchilikning, ommaviy axborot vositalarining, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlarning vakillari ishtirok etishdi**



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining  
**“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish  
bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”** 2017-  
yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni qabul qilindi.

**Harakatlar strategiyasi beshta yo‘nalishdan iborat bo‘lib, “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlangan birinchi yo‘nalishida:**



**1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish;**

**1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish;**

**1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish.**

**masalalari o‘rin olgan**

**“Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlangan ikkinchi yo‘nalishdagi masalalar quyidagilar bilan ifodalanadi:**



**2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish;**

**2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minlash;**

**2.3. Ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini takomillashtirish;**

**2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish;**

**2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash;**

**2.6. Yuridik yordam va xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish.**

# **Uchinchi yo‘nalish “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlanadi va undagi vazifalar quyidagicha:**



**3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o‘rinish sur‘atlarini saqlab qolish;**

**3.2. Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va difersifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish;**

**3.3. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish;**

**3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulkning huquqlarini himoya qilish va uning istiqbolli rolini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom etish;**

**3.5. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarning kompleks va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning salohiyatidan samarali va optimal foydalanish.**



# Harakatlar strategiyasining to'rtinchi, "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" da:



4.1. Aholining bandligi va real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish;



4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish;



4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish;

4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish;



4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

**Kabi masalalar belgilangan.**



**5.1. Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar;**



**5.2. Chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar.**



**Harakatlar strategiyasining “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar” deb nomlangan beshinchi yo‘nalishdagi masalalar hisoblanadi.**



2021 yil 5 oktabr kuni  
bo‘lib o‘tgan  
“O‘zbekiston: besh yillik  
jadal islohotlar”  
mavzusidagi xalqaro  
konferensiyada 5 yillik  
Harakatlar strategiyasi  
islohotlarining natijalari  
jamoatchilikka taqdim  
etildi.

**Unda davlat va  
jamiyat hayotining  
barcha sohalarini  
tubdan isloh etishga  
qaratilgan 300 ga  
yaqin qonun va to‘rt  
mingdan ziyod  
O‘zbekiston  
Respublikasi  
Prezidentining  
qarorlari qabul  
qilinganligi qayd  
etildi**

## **2.2. Harakatlarni strategiyasida maktabgacha ta'lim, jismoniy tarbiya va sport sohalarini rivojlantirish masalalari**

**2017 – 2021-yillarda mamlakatimiz taraqqiyotini yanada jadallashtirishga doir ustuvor vazifalar belgilab berildi.**

**Unda:**

**maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, shart-sharoitlarini tubdan yaxshilash**

**pedagog va mutaxassislarning malakasini yuksaltirish,**

**maktabgacha ta'limga bolalar qamrovini oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish kabi dolzarb vazifalar belgilangan.**



**Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish muhim strategik vazifalardandir.**

**Prezidentimizning 2016-yil 29-dekabrda  
“2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Unda:**

**qishloq aholi punktlarida 50 ta yangi maktabgacha ta'lim muassasasini qurish, mavjud muassasalarning 1167 tasini rekonstruksiya qilish va 983 tasini mukammal ta'mirlash;**

**ularni zamonaviy talablar asosida inventar, o'quv-metodik qo'llanma va zarur anjomlar bilan ta'minlash orqali jami 2200 ta maktabgacha ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi belgilandi.**

**2017-2021 yillar davomida maktabgacha ta'lim tizimida katta o'zgarishlar yuz berdi.**

**2016**



**2020**

**5,2 ming bolalar bog'chalari faoliyat yuritgan bo'lsa**

**ular 18,3 mingga yetdi (shu jumladan davlat bog'chalari soni 5 mingdan 6,2 minggacha oshdi)**

**Bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi darajasi 27,7% bo'lgan bo'lsa,**

**bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi darajasi 61% ga yetdi**

## **2.3. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid davlat siyosati**

**O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi asosida jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va uslubiyotini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari;**

**sport mashg‘ulotlarida innovatsion texnologiyalar;**

**adaptiv jismoniy tarbiya va sportning ilmiy uslubiy jihatlari;**

**jismoniy tarbiya va sportning tibbiy-biologik muammolari;**

**jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy-madaniy va psixologik muammolari;**

**jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy muammolariga e‘tibor qaratish o‘z samarasini berdi.**

**Ayollar hamda qizlarning salomatligini mustahkamlash,  
ular orasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish  
maqsadida:**



**Qoraqalpog‘iston  
Respublikasi, viloyatlar  
va Toshkent shahrida  
“Sog‘lom ona —  
sog‘lom bola” shiori  
ostida an‘anaviy  
mintaqaviy “Ayollar  
sport festivali” o‘tkazib  
kelinmoqda.**





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR  
MAHKAMASINING 2022-YIL 4-IYULDAGI**

**“JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA  
MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI  
OSHIRISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH  
CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA”GI 355-SON QARORI  
“Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta  
tayyorlash va malakasini oshirish tartibi to‘g‘risida” gi  
NIZOMning 3-ilovasida jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha  
mutaxassislar kasbiy faoliyati natijalarini baholash  
MEZONLARI BELGILAB BERILDI:**

**Ushbu Qarorda Maktabgacha ta’lim tashkilotlari  
jismoniy tarbiya instruktorlarini baholash mezoni  
ham belgilangan.**

# Mavzu yuzasidan xulosa:

1

Maktabgacha ta'lim sohasiga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Biz qabul qilayotgan barcha qarorlarni amalga oshiradigan, farzandlarimizga bilim asoslarini, eng zarur hayotiy tushuncha va ko'nikmalarni o'rgatadiganlar yuqori malakali tarbiyachi va murabbiylardir.

2

“Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Dasturi hamda respublikada maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» asosida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi.

3

“Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi.

The background features a complex, abstract geometric pattern of overlapping, semi-transparent blue polygons. The colors range from a light, pale blue to a deeper, more saturated blue. The shapes are angular and layered, creating a sense of depth and movement. The overall effect is a modern, digital aesthetic.

**E'tiboringiz  
uchun rahmat!**